INTERERDA SCHEFFLERA ARBORICOLA VA FICUS BENJAMINANING MORFO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

UO‘K: 635.91

SH.B.Egamberdiyev (PhD), Toshkent davlat agrar universiteti,
E-mail:shxzdegamberdiyev@gmail.com
D.G‘.Esonov (Ilmiy izlanuvchi).

ANNOTATSIY. Ushbu maqolada interer sharoitida keng foydalaniladigan Schefflera arboricola hamda Ficus benjamina turlarining morfo-fiziologik adaptatsiya xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida o‘simliklarning yorug‘likka moslashuvi, barglarning dekorativlik darajasi, namlikka reaksiyasi, vegetativ o‘sish ko‘rsatkichlari hamda interer muhitidagi barqarorligi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Interer o‘simliklari, Schefflera arboricola, Ficus benjamina, adaptatsiya, morfo-fiziologik xususiyatlar, fitomelioratsiY.

KIRISH. Bugungi kunda xona o‘simliklari orasida Schefflera arboricola va Ficus benjamina turlari yuqori dekorativligi hamda interer sharoitiga nisbatan moslashuvchanligi sababli keng tarqalgan turlar hisoblanadi. Ushbu turlar tropik va subtropik hududlardan introduksiya qilingan bo‘lib, ularning yopiq muhitdagi o‘sish va rivojlanish xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish muhim hisoblanadi.

Interer sharoitida o‘simliklarga ta’sir etuvchi asosiy ekologik omillar yorug‘lik, havo namligi, harorat va sug‘orish rejimi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu omillar o‘simliklarning morfologik va fiziologik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yorug‘lik yetishmovchiligi, quruq havo va haroratning keskin o‘zgarishi dekorativ bargli o‘simliklarda stress holatini yuzaga keltiradi.

1-rasm. O‘simlik na’munalari.

Mazkur tadqiqot interer sharoitida Schefflera arboricola hamda Ficus benjamina turlarining morfo-fiziologik adaptatsiya xususiyatlarini aniqlash maqsadida olib borildi. Tadqiqot davomida o‘simliklarning yopiq muhit sharoitiga

moslashuvi, vegetativ o‘sish ko‘rsatkichlari, dekorativlik darajasi hamda ekologik omillarga reaksiyasi kuzatildi.

Tadqiqot davomida Schefflera arboricola va Ficus benjamina turlarining interer sharoitidagi morfo-fiziologik holati kuzatilib, ularning ekologik omillarga moslashuv darajasi qiyosiy tahlil qilindi. Kuzatuvlar yopiq xona sharoitida 90 kun davomida olib borildi hamda o‘simliklarning vegetativ rivojlanishi, barg holati, dekorativlik darajasi va stress belgilaridagi o‘zgarishlar qayd etildi.

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, Schefflera arboricola turi interer sharoitiga nisbatan yuqori moslashuvchanlik ko‘rsatdi. Tadqiqotning dastlabki haftalarida o‘simlikda sezilarli fiziologik stress holati kuzatilmadi. Barg plastinkalari o‘zining tabiiy yashil rangini saqlab qoldi, yangi vegetativ novdalar hosil bo‘lishi davom etdi hamda barglarning dekorativ ko‘rinishi barqarorligi saqlandi.

1-jadval

***Schefflera arboricola* va *Ficus benjamina* turlarining interer sharoitidagi morfo-fiziologik ko‘rsatkichlari**

№	Ko‘rsatkichlar	*Schefflera arboricola*	*Ficus benjamina*
1	Yorug‘likka moslashuv darajasi	Yuqori	O‘rta
2	Past yorug‘likdagi barg holati	Barqaror	Barg sarg‘ayishi kuzatildi
3	Barg to‘kilishi	Minimal	O‘rtacha
4	Havo namligiga talabchanlik	O‘rta	Yuqori
5	Vegetativ o‘sish faolligi	Barqaror	Yorug‘likka bog‘liq

6	Dekorativlikni saqlash muddati	Yuqori	Yuqori, lekin sezgir
7	Stressga chidamlilik	Yuqori	O‘rta
8	Intererga moslashish tezligi	Tez	Sekinroq
9	Barg rangining barqarorligi	Yaxshi	Yorug‘likka bog‘liq
10	Parvarish talabchanligi	Kam	O‘rta–yuqori

Past yorug‘lik sharoitida ham Schefflera arboricola barglarida kuchli xloroz yoki nekrotik o‘zgarishlar kuzatilmadi. Faqat ayrim hollarda novdalarning yorug‘lik manbai tomon cho‘zilishi qayd etildi. Bu esa turning soyaga nisbatan tolerant ekanligini ko‘rsatadi. Kuzatuv davomida barg to‘kilishi minimal darajada bo‘lib, asosan eski barglarda kuzatildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Ficus benjamina turining interer sharoitidagi reaksiyasi nisbatan sezgirroq bo‘ldi. Ayniqsa, joylashuv o‘zgargan dastlabki davrda barg to‘kilishi kuzatildi. Past havo namligi va yorug‘lik yetishmovchiligi sharoitida barg chetlarining qurishi hamda ayrim barglarning sarg‘ayishi qayd etildi.

Kuzatuv davomida Ficus benjamina ning tabiiy yorug‘likka yaqin joylashtirilgan namunalarida vegetativ o‘sish faolroq kechgani aniqlandi. Yorug‘lik yetarli bo‘lgan sharoitda barglarning yaltiroq yuzasi va dekorativ ko‘rinishi yaxshi saqlanib qoldi. Biroq quruq havo sharoitida barglarda transpiratsiya jarayonining kuchayishi natijasida namlik tanqisligi belgilari yuzaga keldi.

Har ikkala turda ham sug‘orish rejimining buzilishi fiziologik holatga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Ortiqcha sug‘orilgan namunalarida tuproqning zichlashuvi hamda ildiz zonasida namlikning ortishi kuzatildi. Natijada ayrim barglarda turgor pasayishi va sarg‘ayish holatlari qayd etildi. Tuproq namligining meyorida saqlanishi o‘simliklarning vegetativ rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, interer sharoitida nisbiy havo namligining 45–60 % oralig‘ida saqlanishi tropik dekorativ o‘simliklarning fiziologik barqarorligini ta’minlaydi. Ayniqsa, Ficus benjamina uchun muntazam barg namlantirish va tarqoq yorug‘lik muhim ekologik omil hisoblanadi.

O‘simliklarning dekorativlik darajasi ham qiyosiy baholandi. Schefflera arboricola turi barg shaklining kompaktligi, rangining uzoq saqlanishi hamda parvarishga nisbatan chidamliligi bilan ajralib turdi. Ficus benjamina esa yuqori estetik ko‘rinishga ega bo‘lsa-da, tashqi omillarga sezgirligi sababli doimiy agrotexnik nazorat talab qilishi aniqlandi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari *Schefflera arboricola* turining interer sharoitiga yuqori darajada moslashuvchan ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu tur past yorug‘lik sharoitida ham dekorativligini saqlab qoldi, barg to‘kilishi minimal darajada kuzatildi hamda vegetativ o‘sish barqaror davom etdi. O‘simlikning stress omillariga nisbatan chidamliligi uning interer ko‘kalamzorlashtirishda istiqbolli tur ekanligini tasdiqladi.

Ficus benjamina turida esa yorug‘lik va havo namligiga sezgirlik yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Interer muhitidagi keskin o‘zgarishlar, ayniqsa past namlik va yorug‘lik yetishmovchiligi barg to‘kilishi hamda dekorativlikning pasayishiga olib kelishi kuzatildi. Biroq optimal ekologik sharoit yaratilganda ushbu turning yuqori estetik va dekorativ xususiyatlari uzoq muddat saqlanishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. B.C. Wolverton. *Interior Landscape Plants for Indoor Air Pollution Abatement.* National Aeronautics and Space Administration (NASA), 1989.

2. Hessayon D.G. *Be Your Own House Plant Expert*. Transworld Publishers, London, 1961.9.

3. Egamberdiev S., Kholmurotov M. Evaluation of rotation of Ficus benjamina types in growing environments //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 284. – S. 03008

4. Egamberdiev S. et al. Determination of substrate composition, light, and temperature for interior plant growth //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 284. – S. 03015.